

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASH TEKNOLOGIYASINING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Asrorova Navbahor Baxtiyorovna,

Osiyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida fanlararo bog'liklikni ta'minlashning didaktik tamoyillari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические принципы обеспечения межпредметных связей в процессе начального образования.

Abstract: This article discusses the didactic principles for ensuring interdisciplinary connections in the primary education process.

Kalit so'zlar: didaktik tamoyillar, qoidalar tizimi, ta'lim jarayoni, o'qitish tamoyillari, boshlang'ich ta'lim, ilmiylik tamoyili, o'quv fanlari

Ключевые слова: дидактические принципы, система правил, образовательный процесс, принципы обучения, начальное образование, научный принцип, учебные предметы

Keywords: didactic principles, system of rules, educational process, teaching principles, primary education, scientific principle, academic subjects

Ta'lim jarayonida didaktik tamoyillar mohiyatini o'qituvchining kasb mahorati va o'quvchining o'rganuvchan faoliyatini bir qolipga solgan holatda maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar tizimi tashkil etadi. Didaktik tamoyillar o'qitishning ta'lim jarayoni qonuniyatlarini, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi prinsiplaridir. Taniqli rus pedagogi, akademik Mixail Nikolayevich Skatkinning ta'kidlashicha, "o'qitish tamoyili o'qituvchi va o'quvchining bir maqsadga yo'naltirilgan hamkorligi hamda shu hamkorlik natijasida ko'zlangan maqsadga erishishi"¹dir.

Har qanday o'quv fani ijtimoiy borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning obyektiv qonuniyatlarni ochib berish bilan shug'ullanadi. Bu esa insonlarga tabiat va ijtimoiy hayotning rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'quv-biluv jarayonida muayyan fan asoslarining o'rganilishi uchun o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llovchi o'qitish tamoyillari ishlab chiqiladi. Bu tamoyillar butun bir pedagogik faoliyatning asosi, boshlang'ich holatini belgilab beradi. Ushbu tamoyillar boshlang'ich ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini ham oydinlashtiradi. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkoniyat yaratadi, ta'lim-tarbiya maqsadini muayyanlashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda didaktik tamoyillar o'z tarkibi, qonuniyatlari va tasnifini hech qachon bir xilda saqlab qololmaydi. Ular har bir davrga mos tarzda, jamiyatning rivojlanishi, ta'lim tizimiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar asosida o'zgarib, shakllanib boradi. Vaqt o'tishi bilan ayrim tamoyillar o'z ahamiyatini yo'qotadi, ba'zilar yanada takomillashib, yangilanib boradi. Demak, didaktik tamoyillar o'quv fanlarining rivojlanib, mukammallashib borishi bilan barobar jamiyat talablariga mos holda yangilanadi. Ayni paytda didaktik tamoyillar jamiyatning boshlang'ich ta'lim oldiga qo'ygan vazifalarini qamrab oladi, o'qitishni tashkil etish xususiyatlarini qanoatlantiradi. O'quv-biluv jarayonida mazmun, metod, shakl birligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amaliyotga tatbiq etish asosida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini davr

1. Скаткин М.Н. Дидактика средней школы. Москва: Просвещение, 1982.-357 стр.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

talablariga mos tarzda takomillashtirish va ta'lim mazmunini yangilab borish, o'quvchilar o'quv faoliyatini muntazam rivojlantirib borishga bog'liq.

Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv fanlari mazmunini belgilashda o'quvchining o'quv materialini idrok etish faoliyatini jadallashtirishga imkon beradigan didaktik tamoyillarga tayanish zarur. Boshlang'ich ta'lim mazmunida fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga muhim didaktik tamoyil sifatida asoslanish orqali ta'lim natijasining sifati oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlar hamda didaktik tamoyillarning har biri o'quv-tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish imkonini beradi. Zero, o'quv fanlariaro aloqadorlikning ta'lim-tarbiya tizimiga kiritilishi didaktik tamoyillarni qo'llash imkonini kengaytiradi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari tarkibiga singdirish natijasida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlariaro aloqadorliklarni ta'minlash uchun pedagogikada ma'lum bo'lgan, quyidagi asosiy didaktik tamoyillarga tayaniladi:

1. O'qitishning ilmiyligi;
2. Nazariya va amaliyotning birligi;
3. O'qitish va tarbiyalashning muntazamliligi;
4. O'qitishda tarixiylik tamoyili;
5. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili;

Ushbu tamoyillarni o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda quyidagi tarzda tatbiq etishga harakat qildik:

Ilmiylik tamoyili - bu faqat ta'lim mazmunida yangi ilmiy yutuqlarni aks ettirish bilan chegaralanmasdan, balki ilmiylik bizning fikrimizcha, u yoki bu fanning asosiy qismini tashkil etishi, o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olib, o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish lozim. Dars jarayonida bilim o'rganish faoliyat natijasi sifatida emas, balki faoliyat jarayoni sifatida e'tirof etilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlaridan egallagan bilimlarini fanlararo aloqadorlik asosida o'z tajribasida sinab ko'radi va uni qo'llash usullarini topadi. Shu asosda o'qitish va tarbiyalashning ilmiyligiga erishiladi.

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili. Boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari asosida o'rganiladigan bilimlar o'quvchilar ongiga ikki tomonlama singdiriladi: nazariy hamda amaliy. Demak, o'quvchilar fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarning nazariy hamda amaliy tomonlarini egallab olishlari kerak. Mana shundagina nazariya va amaliyotning birligi tamoyili ta'minlanadi. Amaliy yo'nalganlik bilimning funksional tomonini ochib berishni ko'zda tutadi, bu o'quvchilarda dunyoni yaxlit tizimli tushunish ko'nikmasini tarkib toptiradi.

Amaliy topshiriq pedagogik jihatdan muhim afzallikka ega, bu esa boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi asosida o'qitish jarayonida ulardan muntazam foydalanish samaradorligini oshiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu afzalliklarni o'quvchilarning amaliy faoliyatlarini o'qitish jarayoniga rasman kiritish yo'li bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Ular ma'lum talablarni bajargandagina o'quv predmetlarining mazmuni turli fanlarni o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar juda ko'p vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ularni o'tkazishda faqatgina erishilayotgan afzalliklar, sarflanayotgan vaqt yetarlicha foyda berganida va amaliy mashg'ulotlar, nazariy materiallarni o'zlashtirish jadallashtirish holdagina o'zini oqlaydi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Ta'lim-tarbiyaning muntazamliligi tamoyili o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy mafkura va milliy g'ururga sadoqat kabi ko'plab tuyg'ularni qaror toptirishdan iborat. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlod iymon-e'tiqodini mustahkamlash, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol inson qilib tarbiyalash, tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarimizning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilishni qaror toptirish, ularni zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan komil insonlar bo'lib yetishishiga ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash ta'kidlangan. Azaldan mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor berib kelinadi va bugungi kunda mazkur e'tibor yanada kuchaymoqda.

O'qitishda tarixiylik tamoyili o'rganilayotgan o'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim mazmunini tanlashda tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'rganilayotgan o'quv materiali boyitiladi, o'quvchilar tomonidan yangi mavzuning puxta o'zlashtirilishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik asosida mazmun jihatidan o'xshash mavzularning ketma-ketlikda bayon etish imkoniyati tug'iladi. Natijada bilimlarni yaxlit bir butunlikda o'zlashtirish ehtiyoji ta'minlanadi. O'qitishda tarixiylik tamoyili didaktshunos olimlar tomonidan XX asrning 50-yillarida umumdidaktik tamoyillar tasnifiga kiritilgan. Har bir millat o'z o'tmishi, milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan o'qish, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, mehnat, musiqa, matematika kabi o'quv fanlari o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bir-birini to'ldiruvchi ushbu o'quv fanlari yordamida o'quvchilar tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar, san'at haqidagi umumiy tushunchalar, til xususiyatlari, og'zaki va yozma nutq shakllanishini tarixiylik tamoyili yordamida haqqoniy dalillar, voqeliklar asosida o'rganadilar. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganish jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida matematika bilan bog'liq tarzda o'tmishdagi buyuk shaxslarning tug'ilgan va yashab o'tgan vaqti, asarlari yozilgan sanalar, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ilmiy merosi va axloqiy qarashlari bilan o'quvchilar tanishtiriladi. Bunda o'quvchilar xotirasi, his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatishi, o'z-o'zini tarbiyalashida matematik tushunchalarning o'rni beqiyosdir. Tarixiylik tamoyili o'quvchilarni o'rganilayotgan o'quv faniga nisbatan qiziqishini oshiradi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptiradi.

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o'zlashtirish taqozo etiladi. Zero, **o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili** qisqa va mazmunli dars o'tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o'xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko'p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv predmetidan dars beradigan o'qituvchi bir soatlik dars jarayonida o'rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda o'quvchilar ongiga etkaza olishi, ular xotirasida o'tilgan mavzuning asosiy komponentlarini saqlanib qolinishiga erishishi lozim. Bunda o'quvchining darsga nisbatan qiziqishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchining bilishga moyilligi, intilishi, havasi, ehtiyoji didaktikada bir so'z bilan "motivatsiya" deb ataladi. Motivatsiya didaktik tamoyil bo'lib, o'quv biluv faoliyatida o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, uni vujudga keltirish o'qituvchidan mahorat talab etadi. Motivatsiya-o'quv jarayonining eng muhim unsuri va ayni vaqtda dars jarayonini jadallashtirishda yetakchi omil hisoblanadi. Motiv o'quvchining bir maqsad sari intilishini mustahkamlaydi, maqsadga erishish uchun izchil va dadil harakatlanishini ta'minlaydi. Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u o'quvchilarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining

o'rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta - uyg'otuvchi, yo'naltiruvchi, fikr uyg'otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo'llanilishi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'rganilgan mavzuni xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi.

Ona tili va o'qish fanlariga oid tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini bir-biri bilan o'zaro bog'lash, ularning mantiqiy aloqadorligi va mazmundorligi taqdim etilayotgan o'quv mashg'ulotining mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganishda berilayotgan va taqdim etilayotgan o'quv materialining mazmuni o'quvchilarning tushunishlari uchun obyektiv borliq manzarasi asosida haqqoniy tarzda aks ettirilishi lozim. O'quvchilar o'rganilayotgan o'quv fani bo'yicha eng yangi ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. O'quvchilar amaliy faoliyatiga dastlabki topshiriqlarni bajarish uchun aniq ma'lumotlarni talab qiladigan o'quv materiallarini kiritish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulaymonovich, S. F., & Maqsudovna, I. S. (2020). Types of lexical meanings. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 481-484.
2. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 209-213.
3. Maxsudovna, I. S., & To'yurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (КАНОТ, EDUCAPLAY KABI PLOTFORMALAR MISOLIDA). *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 177-180.
4. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова ШОҳида Махсудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 16-19.
5. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG 'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 184-186.
6. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). LUG'AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI. *PEDAGOG*, 7(6), 186-189.
7. Maxsudovna, I. S., & To'yurodovna, Q. G. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
8. Makhsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.
9. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
10. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. *Академические исследования в современной науке*, 2(24), 148-152.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

11. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 8-15.
12. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 16-21.
13. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 51-56.
14. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 57-62.
15. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 1-7.
16. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 14-20.
17. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 8-13.
18. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 26-31.
19. Икромова, С. А. (2024). INTELLEKT VA IQBOL: KOGNITIV PSIXOLOGIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 99-104.
20. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 20-25.